

TASHKILOTLAR VA ULARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Urozova Shaxlo

Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

Urozovashaxlo4@gmail.com

Azimov Islom

*Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot kafedrasi
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tashkilotlar haqida tushuncha hamda ularning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni haqida ma'lumot berilgan. Hozirgi kunda tashkilotlarni yuritish va ularni boshqarishda turli metod va raqamli texnologiyalarni o'rni haqida yoritib berilgan. Dunyoda shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, iqtisodiy siyosati va davlat boshqaruvi tuzilishini sifat hamda texnologik jihatdan tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga mamlakatdagi korxona hamda tashkilotlar tuzilishi, boshqaruvini batafsil ko'rsatib o'tamiz.

Kalit so'zlar: tashkilot, boshqaruv, sun'iy intellekt, raqamli texnologiya, rahbar, korxona, rejalashtirish, personalni boshqarish, avtomatlashtirish, raqamli iqtisodiyot.

Kirish.

Tashkilot — bu umumiy maqsad yoki maqsadga erishish uchun ongli ravishdagi faoliyatning muvofiqlashtirilgan kishilar guruhidir.

Tashkilot deb atalishi uchun qandaydir guruh quyidagi majburiy talablarga javob berishi kerak:

- hech bo'lmaganda, o'zini ushbu guruhning a'zosi deb hisoblaydigan ikkita shaxsning mavjud bo'lishi;
- guruhning barcha a'zolari o'zlari uchun umumiy deb qabul qilgan bir maqsadning mavjud bolishi;
- maqsad (maqsadlar)ga erishish uchun birgalikda ishlaydigan guruh a'zolarining mavjud bo'lishi.

Zamonaviy sharoitlarda iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish va

axborot texnologiyalari faoliyatning barcha sohalariga kirib bormoqda. Yangi

O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ham raqamli iqtisodiyotni iqtisodiy rivojlanishning asosiy "drayveri"ga aylantirish va uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirish rejalashtirilgan.

Dasturiy ta'minot ishlab chiqarish hajmini 5 barobar, ularning eksportini 10 barobar 500 million dollarga yetkazish vazifasi belgilandi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish va uni qo'llab-quvvatlash

borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilandi va mazkur vazifalar ijrosi o'laroq, mamlakatimizda yangi elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy

etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativhuquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqamli transformatsiyaga o'tilishi qadamma-qadam amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda telekommunikatsiya korxonalari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish zamonaviy dunyoda asosiy o'rin tutadi. Ushbu texnologiyalar samaradorlikni oshirishga, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga, xarajatlarni kamaytirishga va yangi xizmatlarni taqdim etishga yordam beradi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya tizimida "O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi" faoliyat ko'rsatib, uning tarkibida 20 dan ortiq yirik subyektlar faoliyat ko'rsatadi. Ularning aksariyat davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etilgan bo'lib, ular davlat mulki hisoblanadi. Mazkur korxonalar Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 22-noyabrda 458-son qarori bilan tasdiqlangan "Telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatni litsenziyalash to'g'risida" gi nizomga muvofiq faoliyat ko'rsatadi [1].

Dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan farq qiladi. Koronavirus Covid-19 pandemiyasi ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini jiddiy sinovdan o'tkazmoqda. Shu bilan birga, pandemiya davrida "Buyuk yopilish" atamasi bilan kirib kelgan iqtisodiy inqiroz xalqaro xo'jalik aloqalarida "qiymat zanjirlari"ni uzilishi bilan birga xizmat ko'rsatish va servis tarmoqlariga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatib Jahon iqtisodiyotining retsessiyasini boshlab berdi [2].

Ishlab chiqarish jarayonlariga raqamli texnologiyalarning kirib borishi bilan korxonalarning raqobatdosh ustunlik manbalariga, ularning faoliyati va boshqaruvining samarali kontseptsiyalariga yangi talablar qo'yilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotga o'tishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni prognozlash, shuningdek, salbiy oqibatlarni minimallashtirish bo'yicha yechim va takliflar ishlab chiqish korxona faoliyatini tashkil etishning asosiy shartiga aylanmoqda. Sanoat korxonalarida mavjud resurslar va biznes-jarayonlarni samarali boshqarishning innovatsion texnologiyalar va biznes jarayonlarini optimallashtirish usullariga asoslangan tizimi raqobat ustunligiga erishishning muhim jihati hisoblanadi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Maqolada korxona boshqaruvida raqamli iqtisodiyot hamda raqamli texnologiyalarning o'rnini o'rganishda qiyosiy tadrijiy tahlil, yuqori va quyi o'rinlardagi kompaniyalarning bozor kapitallashuvi, transmilliy kompaniyalarning raqamli platformalar asosida rivojlanish tendensiyalari tahlilida statistik-matematik, hududlar kesimida Internet qamrovi statistik guruhlash va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi asosida boshqaruvning dinamik tahlil asosida yoritib berilgan.

Adabiyotlar sharhi

Raqamli texnologiyalar bugungi kunda bizning hayotimizning bir qismi, turli sohalarida amaliyot yuritishda keng tarqalgan holda qo'llanilmoqda. Ishlab chiqarish jarayonida raqamlashtirish yuzasidan bir qancha olimlar o'z fikrlarini bildirishgan. "Raqamli iqtisodiyot" atamasi birinchi marta 1994 yilda Kanadalik iqtisodchi Don Tapskottning tomonidan ishlatilgan. Muallif o'z ishida raqamlashtirishning iqtisodiyotga ta'siri haqida gapirgan. U tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va biznes yuritishning mutlaqo yangi biznes modellarining paydo bo'lishini raqamlashtirishning asosiy afzalliklardan biri deb hisoblagan. V.A.Plotnikovning tadqiqotlarida raqamlashtirish bu "axborotlashtirishni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi bo'lib, axborotni yaratish, qayta ishlash, uzatish, saqlash va vizualizatsiya qilish uchun raqamli texnologiyalardan keng ko'lamda foydalanish bilan tavsiflanuvchi yangi qurilma va dasturiy taominotning birlashmasi bilan tavsiflanadi" deb ta'rif bergan. Bundan tashqari u korxonalar raqamli texnologiyalardan foydalanganda erishadigan bir qancha afzalliklarni sanab o'tgan: - ishlab chiqarishning moslashuvchanligi uning tez qayta konfiguratsiyasi, ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlarining dinamik o'zgarishi hisobiga ortadi, bu esa raqobatdosh ustunlikni yaratadi va potentsial foyda o'sishiga olib keladi; - mahsulotlarni ishlab chiqishdan tortib to utilizatsiya qilishgacha bo'lgan hayot tsiklining bosqichlarini axborot integratsiyasini ta'minlaydi, bu bizga nafaqat ishlab

chiqarishni optimallashtirish, balki sifat, ekologik xavfsizlik, biznesning yangi imkoniyatlarini yaratish va hokazolarni samarali va har tomonlama hal qilish imkonini beradi[3].

Boshqaruv jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo'llash, bu jarayonni avtomatlashtirish murakkab jarayon bo'lib, insondan yangi bilimlarni talab etadi. Avvalo boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish haqida qisqcha quyidagilarni keltiramiz: Boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish—korxonalar, idoralar, hududiy birlashmalar, shahar xo'jaligi, tarmoq va tashkilotlar faoliyatini boshqarish masalalarini hal qilishda matematik usullar, avtomatik qurilmalar va hisoblash texnikasi vositalarini qo'llashga aytiladi.. Zamonaviy kompyuterlar va texnik vositalar evaziga boshqarishdagi axborot jarayonlari texnologiyasini butunlay o'zgartirish mumkin. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatidagi holatni real vaqt rejimda aks ettirish, uzatilayotgan va qabul qilinayotgan ma'lumotlarning tezkorligi va ishonchliligini ta'minlash, ma'lumotlarni qayd qilish, xabarlarini izlash va guruhlashni sodda holatga keltirish, axborot saqlashni mukammallashtirish, hisobotlar tayyorlashda kishi mehnatini kamaytirish, xo'jalik bo'g'inlari orasidagi o'zaro bog'lanish va axborot oqimi sifatini ko'tarish korxonalarda iqtisodiy xavfsizlik tizimining muhim elementlaridan hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotni turli tarmoqlarida yangi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, ularda raqamlashtirish tizimlarini joriy etish usullari, yangi axborot tizimlari asosida raqamli modellashtirish tamoyillari, korporativ boshqarish jarayonida avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanish samaradorliklarini baholash, ular nazoratini amalga oshirish, raqamli iqtisodiyotning rivojlanish shart-sharoitlari kabi masalalar Qobulovning (1998) ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan [5]. E.Muminova tadqiqotlarida mamlakat sanoatini rivojlantirishda blokchain texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi, korxonalar kooperatsiyasida elektron savdo hamda elektron shartnomalarning ahamiyati to'g'risida izlanishlar olib borilgan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi yurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga keltirdi. Ma'lumki, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot qo'shimcha qiymat yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlaridagi amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida raqamli axborotlar ta'siri asosida kuzatilayotgan jarayonlar sanoat korxonalari strategic rivojlanishida asosiy hal qiluvchi kuchga ega bo'lmoqda[6].

Tahlil va natijalar.

O'zbekiston sanoatini rivojlantirib borish raqamlashtirilgan texnologik platformalarni yaratish, tashqi va ichki bozorlar uchun yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar yetkazib beruvchi yuksak texnologiyali korxonalarni tashkil etishni taqazo etadi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-oktabrdagi pf-6079-sonli Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonida ham iqtisodiyotning real sektorida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi belgilandi:[7]

✧ □ korxona ta'minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta'minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish; □

✧ zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to'xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish; □

✧ innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

✧ □ ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish; □ savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o'zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish;

✧ □ boshqaruv ma'lumotlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish;

✧ □ 2025 yilda korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ulushini 90 foizga yetkazish;

Iqtisodiyotni yangi texnologik bosqichga o'tishi bilan mamlakat ishlab chiqarish tuzilmalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkiliy-iqtisodiy ta'minoti, boshqaruv usullari zamonaviy yodashuvlarni shakllantirishga extiyoj paydo bo'lmoqda. Iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirish sharoitida sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va robotlashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg'or usul va uslublarini joriy etish, uning raqamli intellektuallashtirish darajasini oshirish jarayonlari jadal

rivojlanmoqda. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuvlar qisqa vaqt ichida to'liq axborot almashinuvi, ishchilar va xodimlar sonini qisqartirish, ularning kompetentligini oshirish, moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlari va robotlashtirish komplekslarini joriy etishga tayanadi. Buning uchun innovatsion, yuqori texnologik mahsulot chiqaruvchi ishlab chiqarishni rivojlantirishga e'tibor qaratilishi lozim.

Yaqin 10 yillikda ishlab chiqarish, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa ko'plab sohalarda «smart» aqlli texnologiyalarning qo'llanilishi xech kimga sir emas albatta. So'nggi yillarda sanoat korxonalarining raqobat muhitida omon qolishiga imkon beradigan raqobatbardoshlikning ahamiyati keskin oshdi. Keskin raqobat sharoitida zamonaviy korxonalar bozor holatiga tezda javob berishlari kerak. Buning uchun tashqi muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga o'z vaqtida javob berishga imkon beradigan va tashkilotning ichki jarayonlarini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtiradigan strategiyalarni ishlab chiqish kerak. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri bu mahsulotlarni yuqori sifatli qilib ishlab chiqarilishi hisoblanadi. Mahsulot sifatining oshishi o'z navbatida ishlab chiqarish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keladi, buning uchun albatta ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida bir maromda sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirib borishga to'g'ri keladi.

Xulosa va takliflar

Xorijiy biznesda iqtisodiy salohiyat modelidan tashqari boshqalardan ham keng foydalaniladi. Masalan, innovatsion, ilmiy-texnik va moliyaviy salohiyat modellari.

Har qanday korxonaning iqtisodiy salohiyati modeli quyidagicha belgilaniladi:

- unda mavjud bo'lgan resurslarning hajmi va sifati bilan (asosiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlarida band bo'lganlarning soni, aylanma fondlar va moddiy zaxiralar, moliyaviy va nomoddiy resurslar – patentlar, litsenziyalar, axborotlar, texnologiyalar bilan);
- xodimlar (mutaxassislar, ishchilar, yordamchi xodimlar)ning qandaydir mahsulotni yaratishga qobiliyatlari, boshqacha qilib aytganda ularning ma'lumotli, malakali, psixofiziologik va undovchilik salohiyatlari bilan;
- menejerning korxonadagi mavjud resurslardan muvofiq foydalanishga qobiliyati (menejerning tayyorgarligi, ist'edodi va kasbiy moslashganligi, korxona tashkiliy tuzilmasini yaratish va yangilashni bilishi) bilan;

- innovatsion qobiliyatlari bilan (ya'ni korxonani ishlab chiqarishlarni yangilash, texnologiyalarni almashtirish va h.k.ga qobiliyatlari bilan);
- axborotli qobiliyatlari bilan (ya'ni axborotlarni ulardan ishlab chiqarishda foydalanish uchun ishlab chiqish va "qo'shimcha ishlov berish" usuli);
- moliyaviy qobiliyatlari (korxonaning raqobatbardoshligi, moliya sohasidagi ichki va tashqi qarzдорligi) va boshqalar bilan.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan xolda sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy qilishni takomillashtirishning quyidagi yo'nalishlarini (algoritmini) taklif qilinadi: Yo'l xaritasini shakllantirishda moddiy-texnik salohiyat darajasini va uni modernizatsiya qilish zaruratini, shuningdek, korxonaning kadrlar salohiyati darajasini va tashkilot xodimlarining malakasi va motivatsiyasi darajasini oshirish zarurligini hisobga olish kerak.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, ishlab chiqarishni tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish to'g'risidagi qaror butun korxona faoliyatiga ta'sir qiladi va bunda bilan yuzaga kelish mumkin bo'lgan xavflarni hisobga olish kerak. Faqat istiqbolli texnologiyalarni, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini puxta rejalashtirish va har tomonlama o'rganish bilangina istalgan samarani olish mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish sharoitida korxona boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. Raqamli axborot texnologiyalaridan foydalangan holda moslashuvchan tashkiliy tuzilmalarni yaratish mumkin. Raqamlashtirish davrida sanoat korxonasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish tashkilot rahbariga ham menejment, ham ishlab chiqarish texnologiyalari, ham IT texnologiyalari sohasida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga bo'lgan talablarni qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/611/594>
2. Raqamli O'zbekiston –2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora –tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentini PF-6079 sonli farmoni.
- 3.V. A. Plotnikov, Proceedings of St. Petersburg State University of Economics, 4 (112), 16-24 (2018).
- 4.Brynjolfsson E and Kahin, B, eds. (2002). Understanding the Digital Economy. Massachusetts Institute of Technology, Cambridge, MA

5.Кобулов В.К. (1998) Алгоритмизация в социально-экономических системах. Tashkent: Fan, 320 s. (Kobulov V.K. (1998) Algorithmization in socio-economic systems. - Tashkent: Fan, 320 p.)

6.Muminova, E., Honkeldiyeva, G., Kurpayanidi, K., Akhunova, S., & Hamdamova, S. (2020). Features of Introducing Blockchain Technology in Digital Economy Developing Conditions in Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 159, p. 04023). EDP Sciences.

7.Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini PF-6079 sonli farmoni.